

**RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TUZILADIGAN HAQ EVAZIGA XIZMAT
KO'RSATISH SHARTNOMALARINING NAZARIY ASOSLARI****Yoqubova Zaxroxon Xaydarxo'ja qizi****+99897-719-74-23. E-mail: zsaydaliyeva1@gmail.com**

Toshkent davlat yuridik universiteti

Magistratura va sirtqi ta'lim fakulteti

Intellectual mulk va axborot texnologiyalari huquqi mutaxassisligi magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15635042>

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli texnologiyalar tushunchasi, haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomalar mohiyati va huquqiy tabiati, raqamli texnologiyalar yordamida tuziladigan haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomalarining umumiy tavsifi, elektron shakldagi shartnomalarning turlari va huquqiy kuchi, raqamli shartnomalarning afzalliklari va u bilan bog'liq muammo va kamchiliklarni oldini olish uchun eng dolzarb ilmiy yondashuvlar, qonunchilik normalarini tahlil etib raqamli texnologiyalar yordamida tuziladigan haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomalari oid muammolarni bartaraf etish yuzasidan bir qator nazariy va amaliy takliflar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiya, sun'iy intellekt, haq evaziga xizmat ko'rsatish, shartnoma subyektlari, qonunchilik normalari.

Abstract. This article presents the concept of digital technologies, the essence and legal nature of contracts for the provision of paid services, a general description of contracts for the provision of paid services concluded using digital technologies, types and legal force of contracts in electronic form, the advantages of digital contracts and the most relevant scientific approaches to preventing problems and shortcomings associated with them, and a number of theoretical and practical proposals for eliminating problems related to contracts for the provision of paid services concluded using digital technologies, analyzing legislative norms.

Keywords: digital technology, artificial intelligence, the provision of paid services, subjects, legislative norms.

Kirish va dolzarbligi.

Raqamli texnologiyalar hayotimizda, iqtisodiyotimizda va jamiyatimizda keng foydalanishi uning dolzarbligini oshirmoqda. So'nggi ikki yuz yilda to'rt marotaba Sanoat inqilobi ro'y berdi. Bularning barchasi bug'divigitalari va temiryo'llarning paydo bo'lishi bilan boshlandi.

XIX asrning oxirlarida esa elektr energiyasi keng ommalashdi. XX asr boshlarida esa prototip kompyuter va internet paydo bo'ldi. Hozirgi kunda esa dunyoni raqamli texnologiyalar o'zgartirmoqda. Raqamli texnologiyalar internet olamini ham rivojlantirmoqda. Ma'lumotlarga qaraganda 2025-yilda 10 foiz odamlar internet tarmog'iga ulangan kiyimlarni kiyadi o'qish uchun mo'ljallangan ko'zoynaklarning 10 foizi internet global tarmoqqa ulangan bo'ladi, 50 foiz internet trafik esa aqlli uy, aqlli shahar kabi ilovalarda foydalaniladi, 90 foizga yaqin aholi esa ma'lumotlarni tekin cheklanmagan bulutli saqlash imkoniyatiga ega bo'lishadi,

Raqamli texnologiyalar hozirgi kunda inson hayotining barcha jabhalariga chuqur singib bormoqda. Ular biznes, ta'lim, sog'liqni saqlash, moliya va hatto kundalik turmush tarziga ham katta ta'sir ko'rsatmoqda.

So'nggi yillarda sun'iy intellekt, blokcheyn, bulutli texnologiyalar va kvant hisoblash tizimlari kabi yo'nalishlarda sezilarli yutuqlarga erishildi. Sun'iy intellekt algoritmlari murakkab muammolarni hal qilish qobiliyatiga ega bo'lib, hatto insoniy tafakkurga yaqinlashayotgan texnologiyalarni yaratishga zamin yaratmoqda. Raqamli texnologiyalar bizga ma'lumot almashish, ishlash, ko'ngil ochish yangi va qulay usullarda muloqot qilish imkonini beradi.

Raqamli texnologiyalar, boshqaruv tizimlari, kompyuterlar, mobil qurilmalar va boshqa bir qancha texnik vositalar orqali yangi ma'lumotlarni kashf qilish, o'rganish va ularga murojaat qilish imkonini beradi. Raqamli texnologiyalar hayotning ko'plab sohalarida, shu jumladan biznes, ta'lim, tibbiyot, fan, o'yin-kulgi va boshqalarda keng qo'llaniladi. Ular jarayonlarni avtomatlashtirish, ish samaradorligini oshirish, ma'lumot uzatishni tezlashtirish va katta hajmdagi ma'lumotlarga kirishni ta'minlash imkonini beradi¹

Raqamli texnologiyalar nima?

Raqamli texnologiyalar (inglizcha: Digital technology) - signallarni uzluksiz spektr shaklida emas, balki analog darajadagi diskret diapazonlarda ko'rsatishga asoslangan texnologiyalar. Ushbu texnologiyalarning barcha darajalari diapazonda bir xil signal holatini ifodalaydi. Raqamli texnologiya analogdan farqli o'laroq, uzluksiz emas, balki diskret signallar bilan ishlaydi. Bundan tashqari, signallar kichik qiymatlar to'plamiga ega, odatda ikkita. Haqiqiy hayotda tizimlar, ayniqsa, buxgalteriya hisobini saqlash tizimlari uchta ma'noga asoslanadi.

Odatda bular 0, 1, NULL bo'lib, ular mantiqiy algebrada mos ravishda „False“, „True“ qiymatlariga ega va NULL mavjud bo'lganda „natija yo'q“. Raqamli sxemalar asosan VA, YOKI, EMAS va hokazo kabi mantiqiy elementlardan iborat bo'lib, hisoblagichlar va flip-floplar bilan ham bog'lanishi mumkin. Raqamli texnologiyalar asosan raqamli elektronika, birinchi navbatda kompyuterlarda, elektrotexnikaning turli sohalarida, masalan, o'yin mashinalari, robototexnika, avtomatlashtirish, o'lchash asboblari, radio va telekommunikatsiya qurilmalari va boshqa ko'plab raqamli qurilmalarda qo'llanadi². Raqamli texnologiyalar hayotimizga kirib kelishi bilan u bilan bog'liq, uni tartibga soluvchi qonun normalari ishlab chiqilmoqda. Masalan, 2020-yil 28-apreldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining „Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida“gi 4699-son qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga muvofiq, „Elektron hukumat loyihalarini boshqarish markazi“ va „Raqamli iqtisodiyot tadqiqotlari markazi“ davlat muassasalari tashkil etilganligi va ularning asosiy vazifalari belgilangan. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 25-iyundagi „O'zbekiston Respublikasi raqamli texnologiyalar vazirligi tizimidagi ayrim tashkilotlar faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida“gi 406-son qarorida markazlarning asosiy vazifalari, „Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi“ va „Raqamli iqtisodiyot tadqiqotlari markazi“ davlat muassasasining funksiyalari belgilab qo'yilgan.

Robototexnika. Raqamli robot texnologiyasi tobora takomillashib borishi bilan u keng qo'llanila boshlandi. Robot mashinalari allaqachon ishlab chiqarish sanoatida uchraydi. Ular, shuningdek, bomba aniqlash va zararsizlantirish kabi odamlar uchun xavfli bo'lgan vazifalarda ham qo'llaniladi.

¹ Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies.

² https://uz.wikipedia.org/wiki/Raqamli_texnologiya_asoslari

Shuningdek, olimlar tibbiy tekshiruvlar va protseduralarni amalga oshirish uchun inson tanasiga kiritilishi mumkin bo'lgan nanorobotlar, mayda robotlar ustida ishlashmoqda³.

Sun'iy intellekt. Sun'iy intellekt (AI) raqamli texnologiyalar sohasi bo'lib, u intellektual qobiliyatlarni talab qiladigan vazifalarni bajarishga qodir kompyuter tizimlarini yaratishga qaratilgan. Bunga mashinani o'rganish, tabiiy tilni qayta ishlash, kompyuterni ko'rish va kompyuterlarga "o'ylash" va "qaror qabul qilish imkonini beruvchi boshqa texnologiyalar kiradi.

Bular raqamli texnologiyalarning asosiy turlaridan faqat bir nechtasi. Ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga va ilovalarga ega va ularning barchasi bizning zamonaviy hayotimizda muhim rol o'ynaydi⁴. Internet of Things (IoT). Internet of Things (IoT), raqamli texnologiyalar sohasidagi bir kontseptdir. IoT, ba'zi narsalar (qurilmalar, sensorlar, smart buyurtmalar, elektron vositalar va boshqalar) orqali ma'lumotlarni to'playdi, ularni o'zaro almashadi va ularga boshqa qurilmalar yoki tizimlar orqali aloqani ta'minlaydi. Bu, narsalararo aloqalar tarmog'ini o'rnatish orqali, narsalar o'rtasidagi ma'lumot almashishini, monitoringini va boshqarishini amalga oshiradi. IoT, narsalararo aloqa o'rnatish yordamida raqamli texnologiyalar bilan bog'liq bo'lib, narsalar va sistemalar orasidagi ma'lumot almashishni, boshqarishni va avtomatlashtirishni osonlashtiradi⁵.

Haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomalar mohiyati

Haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasiga muvofiq bir taraf ijrochi buyurtmachining topshirig'iga muvofiq ashyoviy shaklda bo'lmagan muayyan bir harakat faoliyatni amalga oshiradi, ikkinchi taraf buyurtmachi esa bu xizmat uchun haq to'lash majburiyatini oladi⁶. Haq evaziga xizmat ko'rsatish fuqarolik huquqida yangi iqtisodiy kategoriya bo'lib hisoblanadi. Ya'ni ijrochi buyurtmachining topshirig'iga binoan ashyoviy shaklda bo'lmagan muayyan harakatlarni amalga oshiradi, buyurtmachi esa olgan xizmati uchun haq to'lash majburiyatini oladi. Haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasi ham real ham konsensual bo'lishi mumkin. Misol uchun: sayyohlik xizmati konsensual xarakterga ega bo'lsa, aloqa xizmatining ayrim turlari (xat- xabarlar yuborish xizmati) real xarakterli bo'lishi mumkin. Haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasi nomidan ko'rinib turibdiki, muayyan haq evaziga amalga oshiriladi. Shartnoma taraflarining har ikkalasida ham huquq va majburiyatlar mavjud bo'ladi. Shu nuqtai nazardan ikki tomonlama shartnomalar guruhiga kiradi. Shuningdek shartnoma taraflariga kelsak bir taraf buyurtmachi, ikkinchi taraf ijrochidan iboratdir. Buyurtmachi tegishli xizmatlarni qabul qiluvchi shaxs, ijrochi esa xizmat ko'rsatuvchi shaxsdir. Fuqarolik kodeskining 703-moddasida biror cheklov nazarda tutilmaganligi sababli, ham yuridik, ham jismoniy shaxslar buyurtmachi va ijrochi bo'lishi mumkin⁷. Haq evaziga xizmat ko'rsatish respublikamizda bozor munosabatlari shakllanib borishi va demokratik jarayonlarning shiddat bilan o'zgarib borayotganligi sababli aholiga keng jabha bo'ylab xizmat ko'rsatishga qaratilgan shartnomadir. Shartnomaning predm eti ashyoviy shaklda bo'lmagan xizmatdir.

³ West, D. M. (2018). The Future of Work: Robots, AI, and Automation. Brookings Institution Press

⁴ Rajiv Irungbam, The Model of Smart Cities in Theory and in Practice. Journal for Studies in Management and Planning, April 2016. URL: https://www.academia.edu/24772484/The_Model_of_Smart_Cities_in_Theory_and_in_Practice

⁵ Dirks, S and Keeling, M. A Vision of Smarter Cities. IBM Institute for Business Value. 2009. URL: 03.ibm.com/press/attachments/IBV_Smarter_Cities_Final

⁶ O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi

⁷ O'zbekiston Respublikasining fuqarolik kodeksiga sharh: Professional sharhlar. T 2./O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. — Toshkent: Baktria press, 2013. 616-b.

Ya'ni muayyan harakatlarni qilish yoki muayyan faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan, shaxslarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan, muayyan bir ixtisoslikka, malakaga ega bo'lgan kishilar tomonidan amalga oshiriladigan faoliyatdir. Shartnomada haq to'lash tartibi.

Buyurtmachi o'ziga ko'rsatilgan xizmatlar haqini haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasida ko'rsatilgan muddatlarda va tartibda to'lashi shart. Ijrochi o'zi aybdor bo'lm agani holda xizmatni bajara olmagan taqdirda, buyurtmachi ijrochiga uning xarajatlarini to'lashi shart, bunda ijrochining xizmat (xizmatlar) ko'rsatishdan ozod qilinishi munosabati bilan olgan yoki olishi mumkin bo'lgan foydasi chegirib qolinadi. Buyurtmachining aybi bilan xizmatni bajarish mumkin bo'lmay qolgan taqdirda, agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, xizmatlar bahosi butunlay to'lanishi kerak.

Raqamli texnologiyalar yordamida tuziladigan haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomalarining umumiy tavsifi

Raqamli texnologiyalar qatoriga kompyuter texnologiyalari ya'ni, kompyuterlar, noutbuklar, serverlar, mobil texnologiyalar – smartfonlar, planshetlar, mobil ilovalar, internet texnologiyalari – veb-saytlar, bulutli texnologiyalar (cloud computing), axborot tizimlari – ma'lumotlar bazasi, CRM, ERP tizimlar. multimedia vositalari – raqamli kamera, video va audio muharrirlar sun'iy intellekt va mashina o'rganish – aqlli tizimlar, chat-botlar, internet narsalar (IoT) – aqlli qurilmalar: soatlar, uy jihozlari, avtomobillar, blockchain texnologiyasi – raqamli xavfsizlik va kriptovalyutalar asosidagi tizimlar va boshqalarni kiritib o'tishimiz mumkin. Raqamli texnologiyalarning bir qancha afzalliklarga ega. Masalan, ma'lumotlarni tez va aniq uzatish, ish samaradorligini oshirish, uzoqdan boshqarish imkoniyati, saqlash va uzatish xarajatlarini kamaytirish, innovatsiyalarni tez joriy qilishva boshqalarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Raqamli texnologiyalar yordamida tuziladigan haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasi - bu xizmat ko'rsatuvchi va buyurtmachi o'rtasida raqamli vositalar orqali (masalan, internet, elektron pochta, maxsus platformalar orqali) tuziladigan kelishuv bo'lib, unda xizmat turi, narxi, muddat va boshqa shartlar belgilanadi. Shartnomaning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Elektron shaklda tuziladi (PDF, elektron platformada tasdiqlash va h.k.);
2. Har ikki tomonning raqamli imzosi (yoki tasdiqlovchi aksiyasi) bilan tasdiqlanishi mumkin;
3. Xizmatni ko'rsatish - masofadan turib amalga oshiriladi.
4. Shartnoma elektron hujjat aylanishi tizimida saqlanishi mumkin (masalan, EDO tizimi orqali).

Raqamli texnologiyalar yordamida tuziladigan haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomalarga amaliy misollar keltirib o'tadigan bo'lsak, elektron o'quv platformasi orqali o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida tuziladigan shartnomani keltirib o'tishimiz mumkin. Masalan, ushbu shartnomada o'quvchi buyurtmachi sifatida o'qituvchidan ma'lum muddat davomida o'qitishni so'rashi, o'qituvchi esa kelishilgan muddat ichida o'quvchini o'qitishni va ma'lum bir narx evaziga o'qitishni o'z zimmasiga olishi mumkin. Bundan tashqari, hayotimizda eng ko'p foydalanadigan ilovalarimizdan biri Yandeks taxidir. Yandeks taxi ilovasida ham yo'lovchi ma'lum bir masofani belgilab, haydovchi chaqiradi, yandeks taxi haydovchilari esa ma'lum bir narx evaziga yo'lovchini belgilangan manzilga olib borib qo'yishi kerak bo'ladi.

Bunda shartnoma ikki tomonlama tuziladi, internet ilovasi orqali tuziladi, yo'lovchi belgilangan oferta shartlarini qabul qilib haq evaziga belgilangan manzilga yetib boradi, haydovchi esa ijrochi sifatida manzilga eltib qo'yib kelishilgan haqni oladi.

Raqamli texnologiyalar yordamida tuziladigan haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomalariga oid muammolar

Raqamli texnologiyalar yordamida tuziladigan haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomalariga oid bir qancha muammolar mavjud. Asosiy muammolardan biri bu O'zbekistonda hali raqamli texnologiyalar bilan bog'liq huquqiy asoslarning yetarli emasligidir.

Raqamli texnologiyalar yordamida haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomalarini tartibga soluvchi qonunlar hali mavjud emas, shuning uchun amaliyotda raqamli texnologiyalar yordamida haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomalarini tuzish u bilan bog'liq javobgarlik masalalari qo'llanilishi ba'zan murakkablik tug'diradi. Bu, ayniqsa, elektron imzo va elektron hujjatlarning huquqiy kuchini tan olishda seziladi. Raqamli texnologiyalar yordamida haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomalari bilan bog'liq ikkinchi muammo esa texnik infratuzilmaning yetarli emasligidir. Ayrim hududlarda internet tezligi pastligi va texnik infratuzilmaning rivojlanmaganligi raqamli xizmatlar ko'rsatishda to'siq bo'lmoqda. Axborot xavfsizligi muammolari- Raqamli shartnomalar va xizmatlar bilan bog'liq axborot xavfsizligi tahdidlari, xususan, ma'lumotlarning ruxsatsiz foydalanilishi va maxfiylikning buzilishi xavfi mavjud. Raqamli texnologiyalar yordamida haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomalariga oid yana bir muammo kadrlar yetishmovchiligidir. Axborot texnologiyalari sohasida malakali mutaxassislar yetishmasligi raqamli xizmatlar sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Xulosa

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar yordamida tuziladigan haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomalari hayotimizning ajralmas qismiga aylanmoqda. Masofaviy ish, onlayn xizmatlar va elektron platformalar orqali faoliyat yuritish holatlari ko'paygani sari, bu turdagi shartnomalarning ahamiyati ham ortib bormoqda. Ular nafaqat vaqt va mablag'ni tejashga yordam beradi, balki huquqiy jihatdan rasmiy munosabatlarni tartibga solishga ham xizmat qiladi. Raqamli shartnomalarning asosiy afzalliklari — ularning tezkorligi, qulayligi va masofadan turib tuzilishidir. Biroq bu jarayon bilan bog'liq bir qancha muammolar ham mavjud.

Jumladan, elektron imzoning huquqiy kuchi bilan bog'liq tushunmovchiliklar, texnik infratuzilmaning ayrim hududlarda yetarli emasligi, axborot xavfsizligi tahdidlari va mutaxassislar yetishmovchiligi bu borada yechimini kutayotgan dolzarb masalalardir. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun qonunchilik bazasini takomillashtirish, texnologik infratuzilmani rivojlantirish, axborot xavfsizligini mustahkamlash va malakali kadrlar tayyorlash zarur. Ayniqsa, E-IMZO, elektron hujjat aylanishi tizimlari va davlat tomonidan ko'rsatilayotgan raqamli xizmatlarni kengaytirish orqali bu sohada salmoqli natijalarga erishish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar asosida xizmat ko'rsatish shartnomalarini keng joriy etish - O'zbekiston iqtisodiy taraqqiyoti va raqamli transformatsiyasining ajralmas qismidir. Bu jarayonda har bir ishtirokchi - foydalanuvchi, tadbirkor va davlat organlari - o'z o'rnini aniq belgilab olishi muhim hisoblanadi.

Demak, yuqoridagi va butun muhokamalarimizdan kelib chiqib quyidagicha takliflarni keltirib o'tamiz:

1. Huquqiy bazani takomillashtirish: Elektron hujjatlar va imzo tizimini joriy etish, shuningdek, raqamli xizmatlar bilan bog'liq qonunchilikni yanada rivojlantirish zarur. Hozirgi kunda mavjud qonunchilik normalari 2020-yil 28-apreldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 4699-son qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga muvofiq, "Elektron hukumat loyihalarini boshqarish markazi" va "Raqamli iqtisodiyot tadqiqotlari markazi" davlat muassasalari tashkil etilganligi va ularning asosiy vazifalari belgilangan. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 25-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi raqamli texnologiyalar vazirligi tizimidagi ayrim tashkilotlar faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 406-son qarorida markazlarning asosiy vazifalari, "Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi" va "Raqamli iqtisodiyot tadqiqotlari markazi" davlat muassasasining funksiyalari belgilab qo'yilgan ammo raqamli texnologiyalar yordamida tuziladigan haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomalariga oid muammolarni hal etish, shartnoma tuzish qoidalari, shartnoma subyektlari, javobgarlik masalalari aniq hal etishga qaratilgan qonun hujjatlari hali yurtimizda mavjud emas. Shuning uchun O'zbekistonda huquqiy bazani takomillashtirishga ehtiyoj mavjud.

2. Texnik infratuzilmani rivojlantirish raqamli texnologiyalar yordamida tuziladigan haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomalariga oid muammolarni hal etishga, shartnoma tuzishda subyektlarga keng imkoniyatlar yaratishga xizmat qiladi. Internet tarmog'ining sifati va tezligini oshirish, ayniqsa, qishloq joylarda raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytiradi.

3. Axborot xavfsizligini ta'minlash hozirgi kundagi raqamli texnologiyalar bilan bog'liq eng dolzarb masala hisoblanadi. Davlat axborot tizimlari va resurslarida axborot xavfsizligini mustahkamlash, shuningdek, foydalanuvchilarning ma'lumotlarini himoya qilish choralari ko'rish zarur.

REFERENCES

1. 21.12.1995-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi.
2. 29.08.1996-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi.
3. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik kodeksiga sharh: Professional sharhlar. T
4. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. — Toshkent: Baktria press, 2013. 912 b.
5. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies.
6. West, D. M. (2018). The Future of Work: Robots, AI, and Automation. Brookings Institution Press.
7. Rajiv Irungbam, The Model of Smart Cities in Theory and in Practice. Journal for Studies in Management and Planning, April 2016.
8. Dirks, S and Keeling, M. A Vision of Smarter Cities. IBM Institute for Business Value. 2009.
9. www.lex.uz
10. www.norma.uz
11. https://uz.wikipedia.org/wiki/Raqamli_tehnologiya_asoslari